

Date: 7th December-2025

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

Imonova Maftuna Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Eshmurodova Asila Ahmad qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotasiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish masalari yoritilgan. Unda tafakkur tushunchasining mohiyati, uning shakllanish bosqichlari, o'qituvchi faoliyatining ahamiyati hamda o'quv jarayonida tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usul va vositalar tahlil qilinadi. Maqolada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko'nikmlarini shakllantirishga doir metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tafakkur, mantiqiy fikrlash, o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim-tarbiya, pedagogika, ta'lim.

Boshlang'ich ta'lim inson shaxsining shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davr bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, mantiqiy fikrlash qobiliyati, nutqi va ijodiy salohiyati shakllanadi. Tafakkurning rivojlanishi o'quvchining o'zlashtirish darajasi, muammolarni hal etish qobiliyati hamda ijodkorlik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim tizimida tafakkurni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida e'tibor markazida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini mamlakat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida qayd etib kelmoqda. Davlatimiz rahbari o'z chiqishlarida ta'lim tizimining asosiy vazifasi "Yangi avlodni mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va ijodkor insonlar qilib tarbiyalash" ekanligini alohida ta'kidlaydi. Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" haqidagi farmonida ham bu g'oya o'z ifodasini topgan. Konsepsiyada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish-ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, Prezidentning quyidagi so'zlari bu masalaning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi: "Biz bolalarimizni shunchaki o'qitibgina qolmay, ularning tafakkurini o'stirishimiz, yangicha fikrlashga o'rgatishimiz zarur. Chunki bugungi zamon-tafakkur, yangilik va intellect zamonidir". Ushbu fikrlar davlat siyosatida ta'limni faqat bilim berish emas, balki shaxsning tafakkurini rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rilayotganini anglatadi.

"Tafakkur" so'zi arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida keng foydalaniladigan "fikrlash" va "aqliy bilish" so'zlarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi,



Date: 7th December-2025



bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq-til bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Tafakkur-voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo'lmasdan, balki alohida aqliy operatsiyalar-biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar ustida, biz umumiydashgan va abstract tushunchalarga ega bo'lgan obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo'ladi. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraktsiya va umumlashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.

Bola tug'ilgan kundan boshlab ba'zi narsalarni sezish va ba'zi hislarni kechirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Lekin hali bu bolada fikr qilish bo'lmaydi; bola o'sgan sari, tajriba to'play borgan sari nutq orqali aloqa qilish imkoniyati kengayib, faoliyati o'sib borgan sari ta'lim va tarbiya jarayonida uning tafakkuri ham o'sa boradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri ham, asosan aniq- amaliy va aniq –yaqqol tafakkur bo'ladi.

Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta'lim bolalar tafakkurining o'sishi uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ta'lim va maktabdan beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o'sib borishi bilan maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo'ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o'sib boradi. Ta'lim jarayonida tafakkur katta o'sish yo'lini- aniq tafakkurdan abstrakt- nazariy tafakkurga o'tish yo'lini o'tadi. Boshlang'ich maktabning o'zidayoq bolalar birinchi sinfdan boshlab ko'p miqdorda xilma-xil tushunchalarni-grammatikaga, arifmetikaga, tibbiyotga doir va ijtimoiy- siyosiy tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. Muayyan ilmiy mazmunga ega bo'lgan tushunchalar o'quvchilarga mantiqiy ifodalangan shaklda bayon qilib beriladi. O'quvchilarning o'zlari ham tushunchalarni mantiqiy ta'riflab, ularning jins va turlariga doir belgilarini ko'rsatib, aytib berishni o'rganadilar.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning fikr qilish faoliyatining u yoki bu tomonini faollashtiradigan maxsus usullar qo'llanilganda o'quvchilarning tafakkuri samaraliroq rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda: Boshlang'ich sinflarda tafakkurni rivojlantirish-bu nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodiy va yangicha qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalasg demakdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi islohotlari aynan shu maqsadni- yosh avlodni tafakkuri rivojlangan, zamonaviy fikrlaydigan insonlar qilib tarbiyalashni ko'zda tutadi. Shunday ekan, har bir pedagog o'z faoliyatida bu g'oyani amalda ro'yobga chiqarishi, har bir darsni bolalarning tafakkurini o'stiruvchi jarayon sifatida tashkil etishi zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi-o'quvchining fikrlash faoliyatini faollashtirish, uni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarishga o'rgatishdir. O'qituvchi: o'quvchini mustaqil fikr bildirishga undaydi, mantiqiy fikrlashni qo'llab-quvvatlaydi, tafakkur jarayonini rivojlantiruvchi topshiriqlar beradi. O'qituvchi shunday sharoit yaratishi kerakki, o'quvchi

Date: 7th December-2025

o'z fikrini aytishdan cho'chimasin, aksincha, o'z mulohazalarini ishonch bilan ifoda etadi. Bu esa tafakkurning faol rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-512-son Farmoni, 2019-yil 29-aprel.
2. Mirziyoyev.SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent:O'zbekiston.2021.
3. P.I.Ivanov "Umumiy Psixologiya". Toshkent.2008-yil
4. F.I.Haydorov, N.I.Halilova. Toshkent.2009-yil.
5. Imonova, M., & O'ralova, D. (2024). STRESSNING TALABALAR HAYOTIDAGI O'RNI VA ROLI. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(6), 187-193.
6. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1158-1162.
7. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.
8. Имонова, М. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ АБЮЗЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(5 Part 2), 56–59. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/31556>
9. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 950-952.
10. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING USTUVORLIGI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 907-912.
11. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. *Finland academic research science publisher*, 1148-1151.
12. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.
13. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. *Journal of Discoveries in Applied and Natural Science*, 1(1), 62-67.
14. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(10), 101-104.
15. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.
16. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 74-76.



Date: 7th December-2025

17. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(22), 120-123.
18. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(10), 101-104.
19. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 447-453.
20. Imonova, M., & Xoltorayeva, M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO 'RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO 'LLASHNING ZARURIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 903-906.
21. Imonova, M. (2024). AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 485-490.
22. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.
23. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.

